



## NAVOIY VILOYATINING TURISTIK SALOHİYATIDAN FOYDALANISHDA GID- EKSKURSAVODLAR TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Talibova Aziza**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

*ORCID: 0000-0003-3650-5871*

*[azizamamatkulova@mail.ru](mailto:azizamamatkulova@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Navoiy viloyatining turistik salohiyatidan foydalanishda gid-ekskursavodlar tayyorlashda mamlakatning barcha hududlarida ekskursovodlarni sertifikatlash va akkreditatsiya qilish tizimlari hamda O'zbekistonda ichki turizm jadal rivojlanayotgani sababli, sifatli ekskursiya xizmatlariga bo'lgan talab ortishi va ularning samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonda ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlanish istiqbollari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ichki turizm, gid-ekskursavod, ekskursiya xizmatlari, Navoiy viloyati, madaniy meros obyektlari.

## ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОДГОТОВКИ ГИДОВ-ЭКСКУРСОВОДОВ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ

**Талибова Азиза**

*Самаркандский институт экономики и сервиса*

**Аннотация.** В данной статье изучены системы сертификации и аккредитации экскурсоводов во всех регионах страны при подготовке гидов-экскурсоводов для использования туристического потенциала Навоийской области, а также повышение спроса на качественные экскурсионные услуги и их эффективность в связи с быстрым развитием внутреннего туризма в Узбекистане. Также освещены проводимые в Узбекистане реформы и перспективы развития в этой сфере.

**Ключевые слова:** внутренний туризм, гиды-экскурсоводы, экскурсионные услуги, Навоийская область, объекты культурного наследия.

## INCREASING THE EFFECTIVENESS OF TRAINING GUIDE- EXCURSIONISTS IN USING THE TOURISM POTENTIAL OF THE NAVOI REGION

**Talibova Aziza**

*Samarkand Institute of Economics and Service*

**Abstract.** In this article, the system of certification and accreditation of tour guides in all regions of the country in the training of guide-excursionists for the use of the tourism potential of the Navoi region, as well as the increase in demand for quality excursion services and their effectiveness due to the rapid development of domestic tourism in Uzbekistan, were studied. The reforms being carried out in Uzbekistan and the prospects for development in this area were also highlighted.

**Keywords:** domestic tourism, guide-excursionists, excursion services, Navoi region, cultural heritage sites.

### **Kirish.**

O'zbekistonning turizm sohasi keng ko'lamli islohotlar va davlat siyosati yo'nalishlarining tubdan qayta ko'rib chiqilishi jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, qisqa vaqt ichida turizm sohasini tubdan takomillashtirishga qaratilgan bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, yangi "Turizm to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, bu esa sohani bosqichma-bosqich isloh qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratib, tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay muhit va zarur shart-sharoitlarni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda mamlakat rahbariyati, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan turizm sohasini jadal rivojlantirish, uni strategik yo'nalishga aylantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Tadqiqotimiz davomida bir qator taniqli xorijiy olim va tadqiqotchilar tomonidan madaniy meros ob'ektlari va turizm sohasiga oid nazariy-uslubiy masalalar o'rganildi.

Turizm sohasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekskursiya xizmatlarining sifati va samaradorligi, avvalo, ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi kadrlar, xususan, gid-ekskursovodlarning tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda (masalan, Germaniya, Italiya, Yaponiya kabi) gidlar tayyorlash tizimi qat'iy sertifikatlash, doimiy malaka oshirish va innovatsion yondashuvlar asosida yo'lga qo'yilgan (Smith va Robinson, 2006).

Taniqli olim C. Cooper va uning hamkorlari tomonidan turizm nazariyasi va amaliyotiga oid olib borilgan tadqiqotlarda (Cooper et al., 2008) ekskursivodning turistik tajriba yaratishdagi o'rni alohida ta'kidlangan. Ularning fikricha, gidlar nafaqat tarixiy ma'lumotlarni yetkazuvchi shaxs, balki mahalliy madaniyat va an'analarni xorijiy mehmonlarga tushuntirib bera oladigan madaniy vositachilar hisoblanadi.

Mintaqaviy darajada olib borilgan tadqiqotlar esa Navoiy viloyati kabi turistik salohiyatga ega, biroq sayyohlik infratuzilmasi sust rivojlangan hududlarda gid-ekskursovodlar rolini yanada muhimlashtiradi. Mahalliy olimlar (To'xtayeva, 2021; Abdurahmonova, 2022) tomonidan ekskursivodlar faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tahlillarda, ushbu mutaxassislarining yetishmasligi, til bilish kompetensiyasining pastligi hamda innovatsion yondashuvlarning kamligi soha rivojiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasini rivojlantirishga doir qarorlarida (masalan, PQ-4095-son, 2018 yil 5 dekabr) gidlar tayyorlash va ularni qayta o'qitish bo'yicha aniq topshiriqlar belgilangan. Bu esa, davlat siyosatida ham ekskursivodlar tayyorlash muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, UNWTO (BMTning Jahon Turizm Tashkiloti) tomonidan e'lon qilingan metodik qo'llanmalarda gidlar faoliyatini kasbiy me'yorlar asosida tashkil etish va ularni zamonaviy ko'nikmalar bilan ta'minlash asosiy ustuvor yo'nalishlar qatorida tilga olingan (UNWTO, 2020).

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot jarayonida abstraksiya, tahlil va sintez, monografik kuzatish, taqqoslash, statistik guruhlash, tizimli tahlil, grafik ifodalash va boshqa usullardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi (2022–2026 yillar) doirasida Turizm va madaniyat vazirligi oldida muhim vazifalar qo'yilgan. Ushbu strategiyaga muvofiq, ichki turizmni 12 milliongacha

oshirish, xorijiy sayyohlar oqimini esa 9 millionga yetkazish kabi aniq maqsadlar belgilab berilgan. Buning uchun mamlakatda infratuzilmani takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay muhit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunday tashabbuslar nafaqat mamlakat turizm sohasini rivojlantirishga, balki iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga keng yo'l ochadi.

Mamlakatning asosiy turistik shaharlarida inklyuziv turizm infratuzilmasini keng joriy etish va 2026 yilga qadar turizm sohasida band aholi sonini 520 ming nafarga yetkazish rejalashtirilgan. Shubhasiz, sohadagi islohotlar va uning jadal o'sishi kadrlar salohiyatiga yuqori talab qo'yimoqda.

Hozirgi kunda turizm sohasi mehnat bozorida gid-ekskursovodlar misli ko'rilmagan darajada talabgor bo'lib, ular faqat an'anaviy sayyohlik markazlarida emas, balki ichki va xorijiy turizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega bo'lgan hududlarda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Olib borilayotgan islohotlar natijasida 2022 yilda gidlar soni 2016 yilga nisbatan 33%ga o'sdi.

Madaniy meros ob'ektlarini o'rganish va turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil 1 yanvar holatiga respublika bo'yicha 2500 nafar gid, ekskursovod, tarjimon-gid va yo'lbo'shchi instruktorlar faoliyat yuritmoqda. Ulardan eng katta ulushi:

- Samarqand viloyati – 36,7%,
- Toshkent shahri – 28,9%,
- Buxoro viloyati – 16,7%,
- Xorazm viloyati – 8,6% ni tashkil etadi.

Bunday o'sish tendensiyasi turizm sohasidagi davlat siyosati samaradorligini hamda kadrlar tayyorlash masalasining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Genderiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi gidlar orasida 54% erkaklar, 46% ayollar tashkil etadi. Shuningdek, gidlarning eng katta qismini 22-35 yoshlilar (54%) tashkil qiladi. Bu yosh guruhi mehnat bozorida faol, jismonan sog'lom, harakatchan va yangi bozor talablariga tez moslasha oladigan mutaxassislardan iborat. Ular nafaqat ekskursiya faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, balki sohaning kelgusi rivoji uchun ham mustahkam asos hisoblanadi.

O'zbekistonda ekskursiyalar hozirda 20 ta tilda o'tkaziladi. 2022 yilda eng talabgor gidlar o'zbek, rus, ingliz, turk va koreys tillarini biladigan mutaxassislar bo'ldi. Til bilish darajasiga ko'ra, gidlarning:

- 54% – faqat bir tilda xizmat ko'rsatadi,
- 33% – ikki tilda,
- 11% – uch tilda,
- 2% – to'rt va undan ortiq tilda ekskursiya o'tkazish imkoniyatiga ega.

Bunday ko'rsatkichlar sohadagi raqobatni kuchaytirib, gidlar uchun zamonaviy talablarga mos ravishda ko'proq tillarni egallash muhim ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa mamlakatdagi turistik xizmatlarning xalqaro bozorda yanada raqobatbardosh bo'lishiga hissa qo'shadi.

Ichki turizm ekskursiya marshrutlarisiz to'liq tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki ular hududning tarixiy va madaniy merosini o'rganish hamda mehmonlarga tez va samarali ma'lumot taqdim etish imkonini beradi. Bu jarayonda ekskursovod muhim rol o'ynab, mehmonlar va hudud o'rtasida bog'lovchi vosita hisoblanadi. Uning kasbiy mahorati, bilim va tayyorgarlik darajasi turistik xizmatlar sifati hamda sayyohlarning qoniqishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda ichki turizm jadal rivojlanayotgani sababli, sifatli ekskursiya xizmatlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Biroq, ayrim hollarda sayyohlar ekskursiya xizmatlarining past darajada tashkil etilganiga duch kelishadi. Buning asosiy sabablaridan biri – sohada yagona davlat tartibga solish tizimining to'liq shakllanmaganidir. Hozirgi kunda mamlakatning barcha

hududlarida ham ekskurovodlarni sertifikatlash va akkreditatsiya qilish tizimi to'liq yo'lga qo'yilmagan. Shu bilan birga, ba'zi ekskurovodlar zamonaviy texnologiyalar va innovatsion ekskursiya uslublarni o'zlashtirishga yetarlicha e'tibor qaratmayapti, bu esa xizmatlar sifatiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu muammoning bir necha asosiy sabablari mavjud. Avvalo, O'zbekistonning ayrim sayyohlik kam rivojlangan hududlarida ekskurovodlar o'rtasida raqobat past darajada qolmoqda. Shuningdek, yoshlar ushbu kasbni egallashga yetarlicha qiziqish bildirmaydi. Bundan tashqari, ekskurovodlarning mehnat haqi hududdagi o'rtacha maoshga nisbatan pastligi ham sohaga bo'lgan talabni pasaytirmoqda. Shu bilan birga, nodavlat ta'lim markazlarida ekskurovodlar uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarining yuqori narxda ekanligi ularning kasbiy rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, bu sohani samarali boshqarish va rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash maqsadida ilgari ushbu kasbni tartibga solish va boshqarish tajribasini tahlil qilish zarur. Bu orqali hozirgi sharoitga mos keluvchi eng maqbul boshqaruv uslublari aniqlanishi mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va investitsiyaviy imkoniyatlar ichki turizm rivoji uchun keng yo'l ochmoqda. Jumladan, Navoiy viloyatida turizm sohasiga e'tibor ortib, hududning madaniy va tarixiy merosini targ'ib qilishga intilish kuchaymoqda. Shu nuqtai nazardan, ekskurovodlik faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda ekskursiya xizmatlari yangi shakl va uslublarda rivojlanib, Navoiy viloyatida ham xususiy gidlarga bo'lgan talab ortmoqda. Bu esa ekskurovodlar uchun malakani oshirish va zamonaviy yondashuvlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Jamiyatda yangi formatdagi ekskursiya xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda, turizm sohasidagi ijtimoiy-psixologik jarayonlarni chuqur o'rganish zarur. Bu nafaqat xizmat ko'rsatish sifati oshishiga, balki Navoiy viloyatining turistik jozibadorligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Navoiy viloyati O'zbekistonning boy madaniy va tabiiy merosga ega hududlaridan biri bo'lib, u turizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Hududda tarixiy yodgorliklar, arxeologik ob'ektlar, tabiiy go'zalliklarga boy maskanlar mavjud. Ayniqsa, Sarmishsoy petrogliflari, Nurota majmuasi, Raboti Malik karvonsaroyi va boshqa joylar ichki va xalqaro sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otadi.

Shu bilan birga, turistik salohiyatdan to'liq foydalanishda gid-ekskurovodlarning roli katta. Zamonaviy talablarga javob beradigan, bir nechta tilda erkin so'zlasha oladigan, hududning tarixiy, madaniy va tabiiy boyliklarini yuqori darajada taqdim eta oladigan ekskurovodlar sonini oshirish hududiy turizmni rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan biridir.

Navoiy viloyati O'zbekistonning strategik ahamiyatga ega hududlaridan biri bo'lib, nafaqat sanoat markazi, balki ekologik, tarixiy va ziyorat turizmi uchun ham ulkan salohiyatga ega. Viloyat hududida Sarmishsoy petrogliflari, Nurota majmuasi, Raboti Malik karvonsaroyi, Chashma ziyoratgohi kabi madaniy-tarixiy meros ob'ektlari mavjud bo'lib, ular nafaqat mahalliy, balki xalqaro sayyohlar uchun ham qiziqarli hisoblanadi. Shu bilan birga, viloyatdagi tabiiy landshaftlar, cho'l ekotizimi va tog'li hududlar ekoturizm va sayohat turizmi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, Navoiy viloyatida turizmni yanada rivojlantirish va uni raqobatbardosh sohaga aylantirish uchun ekskursiya xizmatlarining sifatini oshirish, gid-ekskurovodlarni tayyorlash va malakasini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirda mazkur yo'nalishda mavjud kamchiliklardan biri — gidlar yetishmovchiligi, ekskursiya xizmatlarining zamonaviy talablarga javob bermasligi va gidlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish imkoniyatlarining cheklanganligidir.

### Xulosa va takliflar.

Navoiy viloyati turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lishiga qaramay, hozirda gidlar tayyorlash va ekskursiya xizmatlarini takomillashtirishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Bu esa viloyatda sayyohlar oqimining oshishini ta'minlashda muayyan to'siqlar tug'diradi. Shuning uchun gid-ekskursovodlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning malakasini oshirish, xorijiy tillarni bilish darajasini yaxshilash va ekskursiyalar o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish viloyatning turistik jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gidlar tayyorlash samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

*maxsus ta'lim kurslarini tashkil etish bo'yicha* – gidlar tayyorlashga ixtisoslashgan markazlar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish, shuningdek, o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish;

*interaktiv ekskursiya uslublarini joriy etish bo'yicha* – zamonaviy ekskursiya metodikalaridan, jumladan, audio-gidlar va virtual turlardan foydalanish orqali ekskursiyalar samaradorligini oshirish;

*xorijiy til o'rgatish tizimini takomillashtirish bo'yicha* – gidlarning ingliz, rus, turk va boshqa xorijiy tillarda faoliyat yuritish malakalarini oshirish uchun maxsus o'quv dasturlari va intensiv kurslar tashkil etish;

*gidlar faoliyatini rasmiylashtirish va tartibga solish bo'yicha* – ularni akkreditatsiya va litsenziyalash jarayonlarini osonlashtirish, shuningdek, gidlar faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish.

Agar yuqoridagi takliflar amalga oshirilsa, Navoiy viloyati nafaqat mahalliy, balki xalqaro turistlar uchun ham yirik sayyohlik markaziga aylanishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, hududdagi iqtisodiy o'sishga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va umumiy turistik xizmatlar sifatining oshishiga hissa qo'shadi. Shuningdek, gid-ekskursovodlar tayyorlash tizimini takomillashtirish nafaqat Navoiy viloyatida, balki butun mamlakat turizm sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

### Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdurahmonova, S. (2022). Ekskursiovdolarning til kompetensiyasi va innovatsion yondashuvlar. *Madaniyat va turizm*, 10(1), 23–30.

Amriddinova R.S. (2025). Ekskursiyashunoslik va gid hamrohligi [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis institute. Samarqand. "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 306 bet. M.

Cooper, C., et al. (2008). *Tourism: Principles and Practice (4th ed.)*. Pearson Education.

Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

Hisobot (2023) Madaniy meros ob'ektlarini o'rganish va turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti hisobotlari.

Qaror (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4095-sonli qarori. (2018, 5 dekabr). *Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida*.

Smith, M., & Robinson, M. (2006). *Cultural Tourism in a Changing World*. Channel View Publications.

Strategiya (2022) Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi (2022–2026).

UNWTO (2020). *Guidelines for Tour Guide Quality and Professionalism*. United Nations World Tourism Organization.